

TALABALARDA BADIYIY-KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Abdullaev Saifulla Fayzullaevich,

pedagogika fanlari doktori,

Buxoro davlat pedagogika instituti musiqa va

tasviriy san'at kafedrası professori

Zikrillayeva Visola Hamrayevna

Buxoro davlat pedagogika instituti

1-bosqich magistranti

[Tel: +998 914050906](tel:+998914050906)

Elektron manzil: zikrillayevavisola@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida talabalarning badiiy-kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga doir tizimni takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari tahlil etiladi. San'at ta'limi mazmuni, ta'limiy faoliyat shakllari, innovatsion yondashuvlar va samarali pedagogik texnologiyalar orqali talabalarni o'z kasbiy sohasida estetik did, ijodkorlik va texnik malakalarni rivojlantirishga yo'naltirish muhim ekani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: badiiy-kasbiy kompetensiya, didaktik tizim, san'at ta'limi, ijodiy yondashuv, innovatsion metod, vizual savodxonlik.

Abstract: This article analyzes the didactic possibilities of improving the system for the formation of students' artistic and professional competencies in the higher education system. It is argued that it is important to direct students to develop aesthetic taste, creativity and technical skills in their professional field through the content of art education, forms of educational activity, innovative approaches and effective pedagogical technologies.

Keywords: artistic and professional competence, didactic system, art education, creative approach, innovative method, visual literacy.

Bugungi globallashuv davrida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, kasbiy tayyorgarlikni chuqurlashtirish va ijodiy fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlash muhim vazifalardan hisoblanadi. Badiiy-ta'lim yo'nalishida esa talabalar nafaqat nazariy bilimga, balki kasbiy-ijodiy ko'nikma va estetik qarashlarga ega bo'lishi zarur. Bu esa o'qitish tizimini zamonaviy pedagogik talablar asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

Talabalarda badiiy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish tizimini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari san'at ta'limi samaradorligini

oshirishda muhim o‘rin tutadi. Mazkur jarayon ta’lim mazmuni, metodlari, shakllari va vositalarining uzviy uyg‘unligiga asoslangan holda tashkil etilishi lozim. Badiiy kasbiy kompetensiya – bu nafaqat amaliy ko‘nikmalar, balki talabaning estetik didi, ijodiy tafakkuri, badiiy anglash va ifoda etish qobiliyatini o‘z ichiga olgan murakkab ko‘p qirrali tuzilmadir. Uning shakllanishi uchun shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan, integratsion va reflektiv yondashuvlarning samarali uyg‘unligi talab etiladi. Didaktik imkoniyatlar esa bu kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy mexanizmdir. Jumladan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar, loyiha asosidagi o‘qitish, ijodiy laboratoriyalar va amaliy mashg‘ulotlar badiiy ta’limni jonlantiradi, uni hayotga yaqinlashtiradi. Demak, talabalarda badiiy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish tizimini takomillashtirish – bu faqatgina ta’lim jarayonining sifatini oshirish emas, balki jamiyat ehtiyojiga javob beradigan estetik tafakkur egalarini tarbiyalash demakdir.

Ta’lim mazmunini yanada takomillashtirishda ikki omil muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, ijtimoiy tajriba va ehtiyojlar asosida o‘quvchilarning o‘quv kompetensiyasiga yo‘naltirish, didaktik imkoniyatlar nuqtai nazaridan esa ularning o‘zaro hamohangligi diqqat markazida bo‘lishi lozim.

Ta’limga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy tajriba jamiyatda quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- a) o‘zini yangi ma’lumotlar bilan boyitish, ta’sir doirasini kengaytirish;
- b) jamiyat uchun, uning keyingi rivoji uchun moddiy ne’matlar va ma’naviy boyliklarni yetarli miqdorda ishlab chiqarish;
- v) ijtimoiy tajribani yoshlarga o‘rgatish.

Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarning soha doirasidagi o‘quv kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ayrim ta’lim muassasalarida rangtasvir, kompozitsiya yoki kasbiy fanlar darslari faqat texnik ko‘nikmalarni berishga qaratilgan bo‘lib, ijodiylik, tahliliy tafakkur va dizayn qarashlari yetarlicha rivojlantirilmaydi. Shu sababli o‘quv jarayoniga integratsiyalashgan metodlar, loyiha asosida o‘qitish, estetik tahlil mashg‘ulotlari kiritilishi zarur.

Didaktik imkoniyatlar va innovatsion yondashuvlar:

1. Vizual va reflektiv metodlar: San’at asarlarini ko‘rish va ularni tahlil qilish orqali tafakkurni rivojlantirish.
2. Kross-dissiplinar integratsiya: San’atni tarix, psixologiya, madaniyatshunoslik fanlari bilan bog‘lab o‘qitish.
3. Yozma va vizual portfoliolar: Talabalarning ijodiy o‘rishini baholash vositasi sifatida foydalanish.
4. Raqamli texnologiyalar: Grafik dasturlar, AR/VR texnologiyalari yordamida darslarni zamonaviylashtirish.

Tashkiliy jihatdan ta’lim muassasasida ijodiy studiyalar, ochiq galereyalar, tanlovlar va ko’rgazmalar o’tkazilishi – talabani faol ishtirokchi va professionallikka intiluvchi shaxs sifatida shakllantiradi.

Olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalariga ko’ra, talabalarda badiiy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish tizimini takomillashtirish ta’lim jarayoniga zamonaviy didaktik yondashuvlarni tatbiq etishni talab etadi. Bu borada quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

Badiiy kasbiy kompetensiyalar — bu talabaning ijodiy fikrlashi, estetik anglash darajasi, tasviriy san’at vositalaridan ongli foydalanish ko’nikmalari va kasbiy-etika me’yorlariga amal qilish madaniyatini o’z ichiga olgan kompleks tushunchadir.

Didaktik imkoniyatlar – ya’ni ta’lim mazmuni, metodlari, shakllari va texnologiyalari – badiiy kompetensiyalarni shakllantirishda asosiy o’rin tutadi. Ular orqali o’quv jarayoni nafaqat bilim beruvchi, balki ijodiy faollikni rag’batlantiruvchi, mustaqil fikrlashni rivojlantiruvchi va kasbiy shakllanishga xizmat qiluvchi tizimga aylantiriladi.

Faoliyatga yo’naltirilgan, shaxsga yo’naltirilgan, integratsion va reflektiv yondashuvlar orqali ta’lim samaradorligi oshadi, talabaning badiiy tafakkuri chuqurlashadi.

Zamonaviy texnologiyalar (media vositalar, raqamli grafik dasturlar, interaktiv metodlar)ning o’quv jarayoniga tatbiqi badiiy kompetensiyalarni shakllantirishga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Ta’lim tizimini takomillashtirishda ustozlar malakasini oshirish, amaliy mashg’ulotlar va ijodiy loyihalarga keng imkoniyat yaratish zaruriy hisoblanadi.

Badiiy-kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda tizimli, bosqichma-bosqich, zamonaviy yondashuvlar asosida ishlovchi didaktik modelni ishlab chiqish – o’z kasbini mukammal egallagan, ijodkor va estetik saviyali mutaxassislarni tayyorlashda asosiy yo’nalishlardan biridir. Shuningdek, rangtasvir, dizayn, kompozitsiya kabi fanlarni zamonaviy metodlar asosida olib borish ta’lim sifati va samarasini oshiradi.[1-rasm]



1-rasm

Xulosa sifatida aytish mumkinki, talabalarda badiiy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish tizimini takomillashtirish – bu nafaqat san’at ta’limi sifatini oshirish, balki estetik tafakkurga ega, kasbiga fidoyi, ijtimoiy mas’uliyatli ijodkor mutaxassislarni tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi. Ushbu tizimning didaktik asoslarda to’g’ri tashkil etilishi san’at ta’limining zamonaviy talablariga mos bo’lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shovdirov SA. O’quvchilarda tasviriy savodxonlikka oid o’quv kompetensiyalarini shakllantirish. // «Globallashuv jarayonlari, ma’naviy taxdidlar, yoshlar ta’limi va tarbiyasi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari tuplami (5 - kism). - Navoiy, - 2016. - B. 195 - 197.

2. Абдуллаев С. Ф. Восточная миниатюра в системе высшего художественно-педагогического образования: История, теория, методика //Москва: СФ Абдуллаев. – 1996.
3. Абдуллаев С. Ф., Муродова М. Х. Методические особенности методов обучения рисованию по памяти и представлению //Universum: общественные науки. – 2022. – №. 2 (81). – С. 21-24.
4. Н.Ростовцев. Методика преподавания изобразительного искусства в школе.-м.:изд.60 «Агар», 2000г.-234с.
5. Shovdirov.S.A. “O’quvchilarda tasviriy savodxonlikka pid o’quv kompetensiyalarni shaklllantirishning metodik tizimini takomillashtirish”. Ped. Fanlari bo’yicha falsafa dokt. (phd) dis. Avtoreferati. Samarqand, 2022.-18.
6. Gulomov A., Karimova D. "Tasviriy san’at metodikasi", Toshkent, 2020.